



**VAQT SHE'RI**

**Baxromova Laylo Rayim qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi  
laylorayimovna@gmail.com , +998941891807  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7543010>

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'ofur G'ulomning "Vaqt" she'rining tarixan vujudga kelishi hamda buyuk tarixshunoslar tomonidan, jumladan Suvon Meliyev tomonidan falsafiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, vaqt topib bo'lmas, qimmatbaho ne'mat ekanligi poetik jihatdan yoritib berilgan.

Kali so'zlar: "Vaqt", Suvon Meliyev, vaqt fenomeni, Aristotel, "Fizika", Aleksandr Naumov, "Yo'l tugamaydi".

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga etgulik qiyos,

Ba'zida bir nafas olgulik muddat-

Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Har kim ham xotira yoza olmaydi yoki yozganda ham qiziq, ya'ni e'tiborga loyiq hamda haqqoniy chiqara olmaydi. Xotira ong-shuurning javhari, inson ishtirokchi va guvoh bo'lgan son-sanoqsiz voqealardan yodda muhrlanib qoladigan nurli nuqtalardir ilmiy til bilan aytadiganda, xotira- muayyan maqsad va g'oya asosida qayta hosil qilingan, qayta tiklangan voqelikdir. Anashunday, ulkan tarixnavistlardan biri Suvon Meliyev ham nasr va nazm ustasi G'ofur G'ulomning "Vaqt" she'rini falsafiy jihatdan tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, Vaqt fenomeni, hodisasi bir yo'la bir necha – fizika, matematika, astronomiya va boshqa qator fanlarda o'rganiladi. Chunki bu fanlar dunyoviy jarayonlarni tadqiq etar ekan, vaqt ishtirok etmagan jarayonning o'zi yo'q, qaysidir darajada vaqtga to'qinadi. Vaqt badiiy adabiyot otlig' yaratilgan ham zaruriy ingredient, masallig'idir. Lekin o'ta nozik, ko'z ilg'amas, ammo hamisha har yerda hoziru nozir masalliqdir.

"Tarix – bu vaqt doirasida kechadigan jarayonlarni o'rganish bo'lib, lekin vaqt nima ekanini hech kim bilmaydi".

Vaqt - yuzaki qaraganda jo'n, zamirga boqilsa, o'ta tilsim va mavhum narsani, uni narsa deb ham, narsa emas ham deb bo'lmaydi, poetik mavzu qilib olish, uni munosib tarzda yuksak poetik mezonlarda ochib berish uchun bu ishga qo'l urgan shoir uncha-muncha shoir bo'lmasligi, bir vaqtning o'zida (yana vaqt!) ham ulug' shoir, ham faylasuf bo'lmog'i, ya'ni mavhum fikrdan she'r yaratmog'i, fikr qa'ridagi she'riyat, jozibani kashf etmog'i kerak.



Buyuk donishmand Aristotel o'zining "Fizika" asarida vaqt haqida to'xtalar ekan, masalani "vaqt mavjud narsalar sirasiga kiradimi yoki nomavjud narsalar sirasiga, so'ng uning tabiati qanaqa" tarzida qo'yadi. Binobarin, vaqt qaysi, fizikaviy aniq yoki poetik hissiy shaklda o'rganilmasin, hamisha sirli hodisa bo'lib qolaveradi.

"Vaqt" she'rining yaratilish tarixiga e'tibor qaratsak, 1945-yilda yaratilgan. She'rning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea sarlavha ostidako'rsatilgan bo'lib, "Menga soat taqdim etgan jiyanim Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan" deb yozib qo'yilgan. Bu shunchaki oddiy bag'ishlov bo'lmay, uni semiotik ochqich deb baholash mumkin. Bag'ishlovda boshqa tafsilot yo'q. Lekin shoir va tarjimon Aleksandr Naumov shoir tilidan yozib olgan "Yo'l tugamaydi" ("Put` ne konchaetsya") deb nomlangan suhbatda shoir o'zining qator asarlari, jumladan "Vaqt" she'ri haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bunda aytilishicha, shoirga zobit jiyanini taqdim etgan soat oddiy, ya'ni do'kondan xarid qilingan yangi soat emas, balki trofey soat bo'lgan. Soat azal-azaldan vaqt o'lchagich asbob, lekin trofey soatning boshqa ko'shimcha belgisi ham bor, u tutilgan, dushmandan o'lja tarzda olingan buyum. Buni qayd etish muhim.

Akademik-shoir G'afur G'ulom "Vaqt" she'rida ikki jihatni aniq qayd etadi.

Birinchi jihat. Shoir sovg'a haqida gapirib kelib, deydi: "Uni oldimu sal ijjirg'andim, soatni ko'riboq o'yladim, uni qandaydir nemis, fashist taqqan, buning ustiga u halok bo'lgan... Shunday qilib, soat 45-yil mayigacha qaydadir yotdi. Bayram tantanalari avji qizigan payt tasodifan oldimdan chiqdi. Ongimda aniq shakllangan fikr bo'lmasa-da, men uni endi taqishim mumkin, deb o'yladim. Bir to'yda qadah so'zi aytar ekanman, dedim: mening bilagimdagi trofey soat bejizga emas, ilgari u dushman uchun vaqtzni o'lchasa, endi u bizning vaqtzni ko'rsatmoqda! (Asliyatda: раньше они отсчитывали время врагу а теперь считают наше время!). Bizning vaqt... Lekin bu o'ta umumiy ramz bo'lib, u hamma narsani o'ziga sig'dirardi. She'r zaruriyati ongda pishib yetilgandi; lekin Vaqt obrazi xuddi bepoyon suv sathidek edi: men bir sohilda turar, ikkinchi sohilni esa ko'ra olmasdim...

Ikkinchi jihat. Yana allomaning so'zlari: "Bir kuni, chala-yarim uyqusiz tundan keyin tongda shahar aylanishga chiqdim, ko'chada sayr qilib yurib, nashriyot eshigiga kelib qolibman. Adabiy tahririyatda ikki kishi bor edi – muharrir do'stlarimdan biri va korrektor qiz. Men beixtiyor salomlashdim, beixtiyor savolga javob berdim; qiz menga yonlab turardi, men uning uzun mayin kipriklariga boqdim. Ular xuddi tungi kapalak qanotiday ko'tarilib-tushardi... Men yana qaradim: kapalak yana qanotlarini yozdi. Ko'zini





pirpiratdi... va men ushbu oniy lahzani arang ilg'ay oldim. Mana sizga manguulikning ikkinchi chegarasi, ibtidolar ibtidosi! Ayni shu emasmi lahzaning jonli obrazi... ko'z ochib-yumgulik lahza? Va ilk kalit band, meni uzoq qiynagan, uni topish amrimahol mo»jiza, xuddi havodan moddiy nimarsa hosil qilishday tuyulgan tansiq band to'satdan o'z oyog'i bilan keldi va xuddi bayramda otiladigan mushak kabi mening tasavvurim osmonida portladi"

Ushbu so'zlar g'oyat noyob dalillar bo'lib, uni yozib olgan Aleksandr Naumovdan minnatdor bo'lishimiz lozim. Bunda alloma o'zi yaratgan muazzam she'rning kurtaklanish onlarini, ta'bir joiz bo'lsa, badiiy embrionini ko'rsatmoqda. Masala yechimining (she'r tahlili ham masala, Nizomiy Ganjaviy yozganidek, sharhi suxan beshtar az suxan, ya'ni so'zning sharhi so'zning o'zidan kattaroq), ilmiy aniq kalitini bermokda. Faqat bu kalitni she'rning dil qulfiga solib, nazokat bilan burash qoladi, xolos.

Shoir yashagan, xususan "Vaqt" she'ri yaratilgan payt ("Vaqt"ning vaqti!) g'oyat murakkab, sharqona-o'zbekona fikr cheklangan, fikr-mulohaza markschalenincha dahriy aqidalar bilan tang'ib tashlangan davr edi. Shoir ushbu aqidalar chizig'idan tashga chiqish xavfli ekanini bilar, lekin shu doira ichida turib ham "Vaqt" kabi mumtoz she'rni yaratolgan edi. Nobop davr qarshiligini yengib o'tish botqoqda turib parvoz qilishga urinishday qiyin amal ekani ayon. Shu o'rinda yozuvchi Omon Muxtorning quyidagi so'zlari ayni muddao: "Hali aytganimiz, minbardagi (yalovbardor) shoir sifatida tanilgan G'afur aka aslida faylasuf, mutafakkir edi. Davr imkon bersa, u faqat (ta'kid bizniki – S.M.) falsafiy, umuminsoniy she'rlar yozardi. Zotan, XX asr o'zbek she'riyatida G'afur akaga yetkazib, "eng kichik zarradan Yupitergacha ..." deya keng nafasda so'zlagan boshqa shoir uchramaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gumilyev L.N. Etnogenez I biosfera. Zemli.M.1993.S. 351
2. Aristotel.1981.145-bet
3. Biografiya zamisla. Besedi s masterami uzbekskoy literaturi, zapisannie Aleksandrom Naumovim. T.: Yosh gvardiya, 1974. S. 28–29.
4. M u x t o r O. Yigirmanchi asr Nasriddini // M u x t o r O. Buxoro hayoti yoki Labihovuzdagi tutlar. Toshkent, 2004. 63-bet.

